

O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI YO'NALISHLARI

Olimjonova Farog'at Dilmurod qizi

**Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalari instituti Turizm ta'lim yo'nalishi 2-
bosqich talabasi**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7783407>

Annotatsiya. Hozirgi davrda respublikamizda milliy turizmning barqaror rivojlanish muammolarini hal qilishning nazariy, uslubiy va amaliy yondashuvlarini ishlab chiqish, turistik mahsulotlar bozorini shakllantirish, mazkur soha faoliyatini tartibga solishning iqtisodiy usullari va uni boshqarishning tashkiliy tuzilmalarini, turizmni rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so'zlar: Turizm sohasi, xalqaro turizm, transport xizmatlari, xorijiy investitsiyalar, zamonaviy marketing, turistik firma, biznes, marketing konsepsiyasi, transport xizmati.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida tub islohotlar olib borilmoqda. Jumladan, turizmni rivojlantirishga ham Davlat tomonidan katta ahamiyat berilmoqda. Turizm sohasini tashkil etuvchi asosiy infratuzilmalar: joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish xizmati va transport xizmati hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, turizm sohasini rivojlantirishda transport xizmatlari asosiy o'rin egallaydi. Transport xizmatlarining rivojlanishi va takomillashib borishi sayyohlar uchun qulayliklar yaratib, ularning sayohatlarini yengillashtiradi. Bu orqali turizmning mamlakatda taraqqiy etishiga erishish mumkin.

Xalqaro turizm insonlarning o'lkalar bilan tanishish, zavqlanish dam olish, bo'sh vaqtini samarali o'tkazish, sog'lig'ini tiklash, dunyo, sport musobaqalarida qatnashish, ma'naviy dunyosini boyitish kabi ishlarga ehtiyojining ortib borishi, boshqa xalqlarning urf-odati va turmush tarzini bilish uchun intilishida alohida o'rin egallaydi.

Shuni ta'kidlashimiz joizki, o'tmishga nazar soladigan bo'lsak, insoniyat har doim makonda o'zining harakat doirasini o'zgartirib, yangi-yangi yerlarni kashf qilgan, turmush-tarzini boyitgan va ijtimoiy munosabatlarning yanada rivojlanishi, takomillashishi uchun intilgan. Bu esa shaxsni shakllanishi va kamol topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, bunda turizm, ayniqsa uning xalqaro yo'nalishi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan. Xalqaro turizm juda ko'p qirrali bo'lib, uning tarkibiy qismlari bo'lgan mehmonxona, ovqatlanish, transport, savdo, dam olish va sayr qilish joylari va boshqa ko'plab sohalar, jarayonlar bir-biri bilan uzviy bog'lanadi va harakatga keladi.

Jahon iqtisodiyotida xalqaro turizmning roli va ahamiyati yildan-yilga ortib borib, u jahondagi eng ko'p daromad keltiradigan asosiy sohalardan biriga aylanib bormoqda.

Turizm sohasini rivojlantirishda yana shuni ham hisobga olish lozimki, mamlakatimizdan tashqarida ilgari respublikamizda yashagan yoki o'zbek millatiga mansub ko'plab kishilar istiqomat qiladilar. Ulardan respublikamizga kelish, avlod-ajdodlari yashagan yurtni ziyorat qilish istagi yuqori. SHu munosabat bilan respublikamizda turizmni rivojlantirish uchun real shart-sharoit mavjud. Bu O'zbekistonda turizmni muvaffaqiyatli rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarning to'liq bo'lmagan ro'yxati bo'lib, hozirgi kunda ulardan foydalanish

darajasi ancha past. Respublikamizda mavjud 8 mingdan ortiq madaniy va tabiiy meros ob'ektlaridan atigi 5-8 foizdan turistik maqsadlarda foydalaniladi, xolos.

Mamlakatimizda turizm sohasini yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida, istiqbolda xorijiy investitsiyalar, jahon brendlarini faol jalb qilish, turizm sohasida biznes uchun qulay shart-sharoitlar yaratishni keng jalb qilgan holda, respublikamizning barcha hududida turizm infratuzilmasining zamonaviy ob'ektlari, eng avvalo, mehmonxonalar, transport-logistika tuzilmalari, muhandislik-kommunikatsiya ob'ektlarini bunyod etish, bu jarayonda yangi ob'ektlarning xalqaro andozalar, turistlar talab va ehtiyojlariga to'liq javob berishini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Respublikamizda oilalarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlash maqsadida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, oilaviy biznes va xususiy tadbirkorlik, hunarmandchilikni yo'lga qo'yish, rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratib berilayapti. Ayniqsa, ushbu sohaga ko'plab imtiyozlar joriy qilinayotgani oilalarning tadbirkorlik iste'dodini yuzaga chiqarishda qo'l kelayapti.

Turizm xizmatlarini tashkil etishda, eng avvalo, turistlar joylashtiriladigan joylarda, ovqatlanish punktlarida, respublika hududi bo'ylab harakatlanishda, turizm ob'ektlariga tashriflarni uyushtirishda turistlar va ekskursantlarning hayoti va sog'lig'i xavfsizligini ta'minlash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish mamlakatda turizmni jadal rivojlantirish, mavjud ulkan turizm salohiyatidan yanada to'liq va samarali foydalanish, an'anaviy madaniy-tarixiy turizm bilan birgalikda turizmning boshqa salohiyatli turlarini — ziyorat qilish, ekologik, ma'rifiy, etnografik, gastronomik, sport, davolash-sog'lomlashtirish, qishloq, sanoat, ishbilarmonlik turizmi va boshqa turlarini jadal rivojlantirish, bolalar, o'smirlar va yoshlar turizmini, oilaviy turizmni, keksalar uchun ijtimoiy turizmni rivojlantirish hisobiga turizmning ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirish, hududlarda yangi turizm yo'nalishlarini tashkil etish, ularni pasportlashtirish, turizm yo'nalishlari va turizm ob'ektlari bo'yicha yagona milliy reestrlarni shakllantirishga yo'naltirilgan ichki, kirish va chiqish turizmini kompleks rivojlantirishning milliy va hududiy dasturlarini ishlab chiqish va amalga oshirish turizm faoliyati sohasida xalqaro hamkorlikni, birinchi navbatda, BMTning Butunjahon turizm tashkiloti (YuNVTO), xorijiy mamlakatlarning turizm bo'yicha nufuzli xalqaro va milliy tashkilotlari turizm xizmatlari mintaqaviy va jahon bozorlarining faol ishtirokchilari bilan hamkorlikni kengaytirish, O'zbekistonning turizm sohasida tartibga soluvchi universal xalqaro konventsiyalar va bitimlardagi ishtiroki, turizm faoliyati amaliyotiga xalqaro va davlatlararo standartlar va normalarni joriy etish kabilar qabul qilingan qarorlar orqali belgilab berilgan.

Tadbirkorlikda faoliyat ko'rsatayotgan hamma xodimlar marketing tadqiqotlarini olib borishni yaxshi bilishlari va tushinishlari hozirgi kun talabi bo'lib qolmoqda. Chunki, uzoq muddatli faoliyat ko'rsatish maqsadida marketing sohasini bilish orqaligina biznesni to'liq amalga oshirish mumkin.

Hozirgi kunda esa har bir turistik korxonada o'zining har bir zarar keltirgan operatsiyasi uchun o'zi moddiy javobgarlikni oladi. Shu sabab ham tadbirkorlik faoliyatining xavfiga turistik firma har doim tayyor bo'lishi lozim. Ushbu xavf tushish darajasiga marketing konsepsiyasini to'g'ri va aniq foydalanish yo'li bilan erishish mumkin. Albatta, bozorda nafaqat raqobat kurashi marketing mohiyatini anglatadi. Turfirma uchun yanada muhim maqsad bo'lib tur mahsulotni ishlab chiqish va sotish hajmining, daromad va foydaning oshishi, rentabellikning ko'tarilishi

hisoblanadi. Zamonaviy marketing turistik firmalarning har bir faoliyati, funksional strukturalariga aloqador, marketingning sotish usullari turfirmalar jamoalari jarayonlarining kunlik ishi bo'ladi.

Yo'naltirilgan va keng qamrovli investitsion siyosat turistik industriyani yaratish va moliyalashtirishning asosiy manbaiga aylanishi lozim. Turizm sohasida bozor munosabatlariga o'tishning dastlabki bosqichlarida turizmga sarmoya jalb qilishning an'anaviy davlat tizimidan bu sohada ro'y berayotgan jarayonlarni boshqarishning muhim vositasi sifatida foydalanish mumkin.

References:

1. Prezident Sh.Mirziyoyevning Mamlakatimizda turizmni izchil rivojlantirish istiqbollari, sayyohlik ob'yektlaridan samarali foydalanish, ko'rsatilayotgan xizmat turlari sifatini oshirish, yurtimizga tashrif buyurayotgan sayyohlar oqimini ko'paytirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar tahliliga bag'ishlangan yig'ilishdagi ma'ruzasi // 2017 yil. 3oktabr. www.uza.uz
2. O'zbekiston Respublikasi preidentining 2016 yil 2 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4861-sonli farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2017 yil 7-fevraldagi PF-4947 – son farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.